XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-avgust VI-68-95-8-108-K/24 Oltinsoy tumani

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 21-fevraldagi VI-64-38-8-108-Q/24-sonli “Joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan ajratilgan va ishlatilmay qolgan mablag‘ni tuman mahalliy byudjetiga qaytarib olish va ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksi 119-, 126-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq tuman byudjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida eshtilib va ko‘rib chiqilganligini inobatga olib, xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 119-, 126-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning axboroti Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 21-fevraldagi VI-64-38-8-108-Q/24-sonli qaroriga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2023-yil 3-avgustdagi 01-22-6/1702-sonli xati ijrosi bo‘yicha Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyatiga 2 dona kompyuter jamlanmalari olish uchun 20 000 000 so‘m, tuman hokimiyati orqali “Surxondaryo suv ta’minoti” MChJga tumandagi Obshir mahallasidagi olib borilgan obodonlashtirish ishlaridan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun ajratilgan 30 000 000 so‘m mablag‘dan foydalanilmasdan turgan 4 500 000 so‘m, tuman hokimining 2023-yil 14-noyabrdagi 136-8-108-F/23-sonli farmoyishiga asosan, tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Oripov Fozil Ashurovichga bir oylik ish

haqi miqdorida moddiy yordam berish uchun 4 271 000 so‘m hamda 2024-yil 16-apreldagi VI-65-57-8-108-Q/24-sonli qaroriga asosan tuman hokimligiga hokimiyat binosiga kuzatuv kameralari o‘rnatish uchun ajratilgan 200 000 000 so‘m mablag‘dan foydalanilmasdan turgan 1 600 000 so‘m, jami 30 371 000 mablag‘ tuman mahalliy budjetiga qaytarib olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Abdurayimov) hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Saidaxmedov) bilan birgalikda:

Belgilangan tartibda tuman mahalliy budjetiga qaytarib olingan 20 000 000 so‘m mablag‘ni Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga olib borayotgan sessiyalarni ijtimoiy tarmoqlarga onlayn to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritish imkoniyatlari mavjud 1 dona videokamera hamda 2 dona printer xarid qilish uchun hamda 10 371 000 so‘m mablag‘ tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi 46-son farmoni bo‘yicha ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish uchun yo‘naltirilsin.

4. Tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilsin.

5.“Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi

MAXMATRAYEMOV
BAXROM OMONOVICH